

Iskandarov Sh.O.
Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti”
kafedrasi o‘qituvchisi

TASHQI SAVDO SIYOSATINING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDAGI O’RNI

***Annotatsiya.** Maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va oziq-ovqat xavfsizligiga tashqi savdo siyosatining ta’siri haqida fikr yuritilgan.*

***Аннотация.** В статье анализируются показатели продовольственной безопасности и влияние политики внешней торговли на продовольственную безопасность.*

***Abstract.** The article analyzes the indicators of food security and the impact of foreign trade policies on food security.*

BMTning oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha tashkiloti (FAO) bergen ta’rifga ko‘ra, oziq-ovqat xavfsizligi bu – barcha odamlarning har qanday vaqtida jismoniy va iqtisodiy jihatdan faol va sog‘lom hayot kechirish imkonini beradigan yetarli darajadagi xavfsiz va to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo‘lish imkoniyatidir. Oziq-ovqat xavfsizligi asosiy to‘rtta ko‘rsatkich orqali aniqlanadi. Bular oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligi, imkoniyat, foydalanish va barqarorlik.

- oziq-ovqat mahsulotlarining mavjud bo‘lishi. Ushbu ko‘rsatkich oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, zaxiralari, savdo hajmi, talab va taklif bilan bog‘liq;

- odamlarning oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- ovqatlanish sohasidagi farovonlikni ta’minalash maqsadida oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish, ya’ni to‘laqonli ovqatlanish ratsioniga erishish;

- iqtisodiy inqirozlar, noqulay ob-havo sharoiti, mavsumiy o‘zgarishlar va shu kabi hodisalarga qaramasdan oziq-ovqat mahsulotlarining mavjud bo‘lishidagi barqarorlikni ta’minalash.

Mamlakat tashqi savdo siyosati oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashda muhim o‘rin tutadi. Yuqorida sanab o‘tilgan oziq-ovqat xavfsizligini belgilab beruvchi ko‘rsatkichlarga tashqi savdoning ta’siri ham ijobiy ham salbiy bo‘lishi mumkin. Savdo qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga hamda mavjud bo‘lishiga ta’sir etadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining narxi, zaxirasi, bandlik, davlat byudjetiga tushumlarning ta’minalashinida tashqi savdo muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, savdo oziq-ovqat mahsulotlarini milliy iqtisodiyotda, mamlakat hududlari o‘rtasida

taqsimlaydi. Uzoq muddatli istiqbolda esa tashqi savdo raqobat muhitiga, infratuzilma rivojlanishiga, marketing va yetkazib berish xizmatlariga, investitsiyalar oqimiga ta’sir etadi. Ushbu omillar yakunda oziq-ovqat zaxiralari va aholi daromadlari o’zgarishida muhim rol o’ynaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligi ko‘rsatkichlariga tashqi savdoning ijobiy ta’siri¹

T/r	Oziq-ovqat xavfsizligi ko‘rsatkichlari	Qisqa muddatli istiqbolda	Orta va uzoq muddatli istiqbolda
1.	Mavjudlilik	Oziq-ovqat mahsulotlari importi hajmining o‘sishi. Oziq-ovqat mahsulotlarining miqdori ortishi va turli xil bo‘lishini ta’minlaydi.	Ixtisoslashuv natijasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishi. Xorijlik ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatlashish natijasida ishlab chiqarish samaradorligining ortishi. Ishlab chiqarishga investitsiyalar, ITTKI, yangi texnologiyalarning jalb etilishi.
2.	Imkoniyat	Oziq-ovqat mahsulotlarini import qiluvchi mamlakatlarda ushbu mahsulotlarga nisbatan import bojlarining pasayishi. Natijada import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari narxining pasayishi.	Erkin savdo natijasida eksport va TTXI hajmining o‘sishi, iqtisodiy o‘sishning ta’milanishi, ishsizlik darajasining pasayishi, aholi daromadlarining o‘sishi.
3.	Foydalanish	Assortimentning kengayishi natijasida muvozanatlashgan ovqatlanish ratsionining ta’milanishi.	Eksport yoki import qilinayotgan mahsulotlarga nisbatan milliy va xalqaro standartlarning faol qo’llanishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizlik darajasining ortishi.
4.	Barqarorlik	Import mavsumiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari narxlari tebranishining salbiy oqibatlarini kamaytiradi.	Past va yuqori hajmli bozorlarni taqqoslaganda siyosiy yoki tabiiy sharoitning o‘zgarishi jahon bozoriga kamroq darajada ta’sir etadi.

¹ Состояние рынков сельскохозяйственной продукции: 2015–2016 годы. ФАО. Рим, 2015. С. 29.

Tashqi savdoning liberallashuvi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga nafaqat ijobjiy, balki salbiy ta'sir etadi. Oziq-ovqat mahsulotlari importi hajmining ortishi milliy ishlab chiqarish rivojlanishiga to'sqinlik qilishi yoki eksportyor mamlakatga bog'liqlik darajasining ortishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, Shri-Lanka 1981-yilda iste'mol qilinayotgan sut mahsulotlarining 20 %ni import qilgan bo'lsa, 2006-yilga kelib bu ko'rsatkich 70 %gacha o'sdi. 25 yil davomida import hajmi yetti marta o'sdi, ushbu davrda esa milliy ishlab chiqarish bor yo'g'i 15 %ga o'sdi.²

Oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlariga tashqi savdoning salbiy ta'siri³

T/r	Oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari	Qisqa muddatli istiqbolda	O'rta va uzoq muddatli istiqbolda
1.	Mavjudlilik	–	Jahon bozoridagi narxlarning ko'tarilishi eksport hajmining ortishiga olib kelishi mumkin. Natijada ichki bozor uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportga yo'naltiriladi. Bu holat oziq-ovqat mahsulotlarining yetarli miqdorda mavjud bo'lishiga ta'sir etadi. Importyor-mamlakatlardagi ishlab chiqaruvchilarining arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan raqobatlasha olmasligi va milliy ishlab chiqarishning qisqarishi.
2.	Imkoniyat	Oziq-ovqat mahsulotlarining sof eksportyor-mamlakatlarida eksport qilinayotgan mahsulotlar narxining ko'tarilishi.	Import bilan bog'liq holda agrar sohadagi milliy ishlab chiqaruvchilarining bozorgi ulushining qisqarishi. Natijada bandlik darajasi va aholi daromadlarining kamayishi.
3.	Foydalanish	Arzon va yuqori kaloriyalı, lekin	Xom ashyo tovarlari eksportiga ixtisoslashish

² FAO. 2006. Import surges in developing countries: the case of poultry. FAO Briefs on Import Surges: Commodities No. 1. Rome

³ Состояние рынков сельскохозяйственной продукции: 2015–2016 годы. ФАО. Рим, 2015. С. 29.

		to‘yimlilik (foydalilik) darajasi past bo‘lgan mahsulotlar importining ortishi.	natijasida an’anaviy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish tizimidan yer va boshqa resurslarning chiqib ketishi.
4.	Barqarorlik	Savdo siyosatining o‘zgarishi natijasida qisqa muddatli istiqboldagi yo‘qotishlar.	Narxlarning keskin o‘zgarishi natijasida tarmoqlardagi yo‘qotishlar.

Tashqi savdo nazariyalaridan biri hisoblangan nisbiy ustunlik nazariyasidan kelib chiqib oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Ochiq iqtisodiyot raqobatni rag‘batlantiradi va nisbiy ustunlik asosida mamlakat oziq-ovqat mahsulotlarining ma’lum turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashadi.
2. Ixtisoslashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.
3. Samaradorlikning ortishi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishi va iqtisodiy o‘sishni ta’minalaydi.
4. Oziq-ovqat mahsulotlari hajmining ortishi narxlarning pasayishiga olib keladi va oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo‘lish imkoniyatini oshiradi.
5. Iqtisodiy o‘sish daromadlarning o‘sishini ta’minalaydi va oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo‘lish imkoniyatini yanada osonlashtiradi.

Shu bilan birgalikda nisbiy ustunlik nazariyasi hozirgi global iqtisodiyot shart-sharoitlariga to‘liq mos kelmaydi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashda ushbu nazariyaning kamchiliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Kapital va ishchi kuchi mamlakatlar o‘rtasida global ishlab chiqarish zanjiri orqali erkin harakatlanadi.
- Qishloq xo‘jaligi sohasida mehnat resurslari va kapital iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga qaraganda moslashuvchan va mobil emas.
- Oziq-ovqat mahsulotlariga narx qo‘yilayotganda ekologik oqibatlarni o‘z ichiga olgan tashqi omillar ishtirok etmaydi.
- Raqobat ustunligi nazariyasida qisqa muddatli istiqboldagi shart-sharoitlar inobatga olingan, uzoq muddatli tarkibiy o‘zgarishlar esa hisobga olinmagan.

Xulosa qilib aytganda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashda tashqi savdo siyosati har bir mamlakat xususiyati va iqtisodiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim. Tashqi savdo siyosati oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashda rag‘batlantiruvchi omil sifatida bo‘lishi maqsadga muvofiq. Davlatning to‘g‘ri olib borgan tashqi savdo siyosati mavjud resurslardan oqilona foydalanish, boshqa mamlakatlar bilan samarali savdo aloqalarini yo‘lga

qo‘yish va natijada o‘sib borayotgan talabni qondirish, aholi farovonligini oshirish imkonini beradi.